




NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **556,6** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **93,4 %** ni tashkil etdi.




TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollar)

	2021- yil	2022- yil	O'tgan yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	595,9	556,6	93,4	x
Eksport	209,3	274,6	131,2	100,0
tovarlar	204,3	273,0	133,6	99,4
xizmatlar	5,0	1,6	31,9	0,6
Import	386,6	282,0	72,9	100,0
tovarlar	367,2	274,8	74,8	97,4
xizmatlar	19,4	7,2	37,2	2,6
Saldo	- 177,3	- 7,4	x	x

Ma'lumot uchun: Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinnarda TIF TN) bilan birlashtirilgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinnarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Navoiy viloyati jahonning **69** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (**19,0 %**), Xitoy Xalq Respublikasida (**17,2 %**), Kanada (**16,4 %**), Fransiyada (**10,6 %**) va Qozog'istonda (**9,7 %**) qayd etilgan.

NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-iyun, iyun. AQSH dollarri, ulushi, % da)



Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	105,5	44,4	61,1	19,0
Xitoy Xalq Respublikasi	95,7	3,4	92,3	17,2
Kanada	91,1	88,8	2,3	16,4
Fransiya	59,2	57,5	1,7	10,6
Qozog'iston	54,2	11,3	42,9	9,7
Turkiya	37,4	23,3	14,1	6,7
Hindiston	12,6	-	12,6	2,3
Koreya Respublikasi	12,1	0,1	12,0	2,2
Turkmaniston	10,5	9,3	1,2	1,9
Qirg'iz Respublikasi	10,0	8,8	1,2	1,8

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnni bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston, Turkmaniston va Qирг'из Республикаси bilan TSA da so'ngi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qozog'iston, Turkmaniston, Qирг'из Республикаси, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Kanada, Fransiya, Turkiya, Hindiston, Koreya Respublikasi, Litva, Eron Islom Respublikasi va Germaniya hissasiga to'g'ri kelgan.

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollar'i)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	73,6	96,8	105,5
<i>Eksport</i>	19,3	15,8	44,4
<i>Import</i>	54,3	81,0	61,1
Xitoy Xalq Respublikasi	72,5	83,2	95,7
<i>Eksport</i>	14,2	34,7	3,4
<i>Import</i>	58,3	48,5	92,3
Kanada	44,3	110,7	91,1
<i>Eksport</i>	44,3	107,5	88,8
<i>Import</i>	-	3,2	2,3
Fransiya	79,1	2,0	59,2
<i>Eksport</i>	78,3	-	57,5
<i>Import</i>	0,8	2,0	1,7
Qozog'iston	26,8	30,0	54,2
<i>Eksport</i>	3,0	7,4	11,3
<i>Import</i>	23,8	22,6	42,9
Turkiya	29,3	37,7	37,4
<i>Eksport</i>	14,1	17,8	23,3
<i>Import</i>	15,2	19,9	14,1
Hindiston	2,1	1,4	12,6
<i>Eksport</i>	-	0,1	-
<i>Import</i>	2,1	1,3	12,6
Koreya Respublikasi	36,1	15,5	12,1
<i>Eksport</i>	-	0,1	0,1
<i>Import</i>	36,1	15,4	12,0
Turkmaniston	10,6	3,9	10,5
<i>Eksport</i>	10,2	3,0	9,3
<i>Import</i>	0,4	0,9	1,2
Qirg'iz Respublikasi	24,1	3,1	10,0
<i>Eksport</i>	23,9	2,7	8,8
<i>Import</i>	0,2	0,4	1,2

NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyun, *mln. AQSH dollarri*)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Litva	40,3	49,3	9,7
<i>Eksport</i>	2,2	6,2	8,2
<i>Import</i>	38,1	43,1	1,5
Eron Islom Respublikasi	1,6	4,9	8,8
<i>Eksport</i>	-	0,5	2,6
<i>Import</i>	1,6	4,4	6,2
Germaniya	14,6	7,9	8,0
<i>Eksport</i>	0,2	-	-
<i>Import</i>	14,4	7,9	8,0
Afg'oniston	0,3	4,0	6,5
<i>Eksport</i>	0,3	4,0	6,5
<i>Import</i>	-	-	-
Ukraina	10,6	13,0	5,5
<i>Eksport</i>	1,2	0,7	0,3
<i>Import</i>	9,4	12,3	5,2
Singapur	2,0	3,2	3,7
<i>Eksport</i>	1,8	3,2	3,7
<i>Import</i>	0,2	-	-
Tayvan	-	-	2,3
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	-	2,3
Tojikiston	0,3	1,0	2,0
<i>Eksport</i>	0,3	0,8	2,0
<i>Import</i>	-	0,2	-
AQSH	27,1	70,1	2,0
<i>Eksport</i>	0,1	0,7	0,4
<i>Import</i>	27,0	69,4	1,6
Yaponiya	3,2	15,2	1,9
<i>Eksport</i>	0,2	-	-
<i>Import</i>	3,0	15,2	1,9

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-iyun)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollarari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	556 624,8	93,4
Navoiy sh.	299 577,0	77,6
Zarafshon sh.	4 263,1	51,8
G'ozg'on sh.	1 236,1	2,0 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	170 805,2	126,1
Konimex	218,5	19,0
Qiziltepa	41 418,3	3,8 b.
Navbahor	17 859,7	126,2
Nurota	4 588,4	73,9
Tomdi	727,4	20,7
Uchquduq	11 218,6	3,6 b.
Xatirchi	4 058,9	18,8
Bo'linmaydigan hajm	653,6	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollarari

Navoiy sh. – 299 577,0

Karmana t. – 170 805,2

Qiziltepa t. – 41 418,3

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollarari

G'ozg'on sh. – 1 236,1

Tomdi t. – 727,4

Konimex t. – 218,5


Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **53,8 %** ulush bilan **299 577,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,04 %** ulush bilan **218,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan choratadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-iyun oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **34,0 %** ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollarri, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-iyun oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan **83,2 %** ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **66,0 %** ni tashkil etdi.


NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-iyun)



Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **274,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **131,2 %** ni tashkil etdi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar (**57,2 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**23,4 %**), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'iidan tashqari (**10,3 %**) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-iyun, yillar kesimida)




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
Jami eksport	209,3	274,6	131,2	100,0
shu jumladan:				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	10,5	10,1	96,7	3,7
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,8	28,4	5,9 b.	10,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,4	2,5	187,7	0,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,1	-	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	135,2	157,1	116,2	57,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	45,2	64,3	142,1	23,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	0,5	1,8	4,0 b.	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	6,7	8,6	128,1	3,1
Xizmatlar	5,0	1,6	31,9	0,6

2022- yilning yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2021- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2021- yilning mos davriga nisbatan nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari, mashinalar va transport asbob-uskunalari, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollar)




Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-iyun oylarida eksport hajmi **274,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollarasi, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-iyun oylarida MDH mamlakatlariiga **77,0** mln. AQSH dollarasi qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **28,0** % ini tashkil etdi.

NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-iyun, % da)



2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiyligi hajmining **32,3** %), Fransiya (**20,9** %), Rossiya Federatsiyasi (**16,1** %), Turkiya (**8,5** %), Qozog'iston (**4,1** %), Turkmaniston (**3,4** %) va Qirg'iz Respublikasi (**3,2** %) saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi **88,5** % ni tashkil etmoqda.



Davlatlar	Ming AQSH dollarari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2021	2022		
Kanada	107 477,6	88 837,7	82,7	1
Fransiya	0,1	57 457,1	-	2
Rossiya Federatsiyasi	15 766,5	44 353,7	2,8 b.	3
Turkiya	17 832,0	23 344,3	130,9	4
Qozog'iston	7 418,9	11 284,9	152,1	5
Turkmaniston	2 972,7	9 281,6	3,1 b.	6
Qirg'iz Respublikasi	2 697,1	8 792,2	3,3 b.	7
Litva	6 216,5	8 215,2	132,2	8
Afg'oniston	3 984,7	6 488,9	162,8	9
Singapur	3 191,8	3 722,0	116,6	10
Xitoy Xalq Respublikasi	34 713,7	3 385,9	9,8	11
Eron Islom Respublikasi	526,1	2 578,2	4,9 b.	12
Tojikiston	847,1	2 033,3	2,4 b.	13
Polsha	128,9	1 312,9	10,2 b.	14
BAA	866,0	717,4	82,8	15
AQSH	657,2	434,6	66,1	16
Ozarbayjon	62,5	416,0	6,7 b.	17
Pokiston	679,8	351,0	51,6	18
Ukraina	720,6	325,1	45,1	19
Armeniya	-	238,0	-	20

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **39** tani tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2022- yil yanvar-iyun)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollarari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	274 645,3	131,2
Navoiy sh.	190 148,4	126,5
Zarafshon sh.	283,3	13,5
G'ozg'on sh.	853,2	4,9 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	34 353,3	184,2
Konimex	183,6	119,0
Qiziltepa	28 822,0	4,6 b.
Navbahor	13 435,1	132,4
Nurota	2 757,8	129,0
Tomdi	508,9	82,7
Uchquduq	467,7	49,0
Xatirchi	2 571,8	15,2
Bo'linmaydigan hajm	260,2	-



Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **69,2 %** ulush bilan **190 148,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,1 %** ulush bilan **183,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI

(yanvar-iyun, % da)


XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,6	5,0	3,7
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	8,0	2,3	10,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,3	0,7	0,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	67,5	64,6	57,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	14,9	21,6	23,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,9	0,2	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	4,3	3,2	3,1
Xizmatlar	1,5	2,4	0,6

2022- yil yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi **8,5** punktga oshib **23,4** % ni, nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari tovarlari ulushi **2,3** punktga oshib **10,3** % ni tashkil etdi.

XSST tarkibi	Kanada		Fransiya		Rossiya Federatsiyasi		Turkiya	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Jami eksport	107,5	88,8	-	57,5	15,8	44,4	17,8	23,3
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	-	-	0,7	0,4	-	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	-	-	0,1	20,7	1,1	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	-	-	-	-	-	0,3	1,1	1,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	106,6	88,7	-	57,5	-	0,1	-	-
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	0,9	0,1	-	-	8,9	15,4	13,6	19,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	-	-	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	-	-	4,7	6,8	-	-
Xizmatlar	-	-	-	-	1,4	0,7	2,0	0,5

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari kiradi.

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi **1,6** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,6** % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **31,9** % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**68,8** %), moliyaviy xizmatlar (**16,3** %) va safarlar (turizm xizmatlari) (**14,9** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2022- yil yanvar-iyun, ming AQSH dollarari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **4 750,7** ming AQSH dollar qiymati **7 555,7** tonna meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2021- yilning mos davriga nisbatan **79,4** % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida **1,7** % ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida **2 161,2** ming AQSH dollarini, Xatirchi tumanida **1 333,8** ming AQSH dollarini, Karmana tumanida **571,1** ming AQSH dollarini va Navbahor tumanida **434,0** ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-iyun)



Davlatlar	2021- yil			2022- yil		
	Tonna	Ming AQSH dollarari	Ulushi*, % da	Tonna	Ming AQSH dollarari	Ulushi*, % da
Qozog'iston	6 510,4	3 152,6	52,7	4 273,1	1 476,1	31,1
Eron Islom Respublikasi	460,0	464,0	7,8	811,0	911,6	19,2
Afg'oniston	273,7	216,9	3,6	772,7	539,6	11,4
Xitoy Xalq Respublikasi	128,0	119,5	2,0	494,5	536,1	11,3
Rossiya Federatsiyasi	174,4	254,1	4,2	329,9	379,6	8,0
Pokiston	169,9	679,5	11,4	174,3	334,7	7,0
Turkiya	-	-	-	142,3	158,9	3,3
Ukraina	51,9	31,6	0,5	189,0	116,2	2,4
Iraq	66,9	57,9	1,5	119,8	97,1	2,0
Polsha	-	-	-	84,2	72,7	1,5
Belarus Respublikasi	894,2	499,9	8,4	128,1	65,9	1,4
Bolgariya	-	-	-	21,0	31,5	0,7
Isroil	-	-	-	13,5	27,0	0,6
Tojikiston	-	-	-	2,3	3,7	0,1
Boshqa davlatlar	774,0	505,4	7,9	-	-	-

* qiyamat ifodasidan

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (31,1 %), Eron Islom Respublikasi (19,2 %), Afg'oniston (11,4 %) va Xitoy Xalq Respublikasi (11,3 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

NAVOIY VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-iyun)




import

2022- yil yanvar-iyun oylarida import hajmi **282,0** mln. AQSH dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan **72,9 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**40,1 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**23,0 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**20,0 %**) ga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi **274,8** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **7,2** mln. AQSH dollariga yetdi.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-iyun, yillar kesimida)




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarri		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
Jami import	386,6	282,0	72,9	100,0
shu jumladan:				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12,6	8,7	68,9	3,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,3	5,7	2,5 b.	2,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,4	9,2	23,6 b.	3,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	1,1	-	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	35,1	56,6	161,0	20,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	54,9	64,9	118,1	23,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	228,7	113,0	49,4	40,1
Turli xil tayyor buyumlar	33,2	15,6	47,2	5,5
Xizmatlar	19,4	7,2	37,2	2,6

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob- uskunalarini (**40,1 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**23,0 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**20,0 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**5,5 %**) hissasiga to'g'ri keladi.

Import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiyligi hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning mos davriga nisbatan mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**23,6** barobar), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**2,5** b.), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**61,0 %**) va asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**18,1 %**) o'sgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollar)




Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-iyun oyida import hajmi **282,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollarari, ulushi, % da)




MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich **39,8** va **60,2 %** ni tashkil etdi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Hindiston, Koreya Respublikasi va Germaniya) jami importning **86,2 %**ini tashkil qiladi, bu **242,9** mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022-yil yanvar-iyun, % da)





Davlatlar	Ming AQSH dollarri		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2021	2022		
Xitoy Xalq Respublikasi	48 463,2	92 272,3	190,4	1
Rossiya Federatsiyasi	81 064,8	61 132,0	75,4	2
Qozog'iston	22 607,8	42 865,5	189,6	3
Turkiya	19 916,8	14 081,0	70,7	4
Hindiston	1 272,7	12 585,0	9,9 b.	5
Koreya Respublikasi	15 407,9	11 992,6	77,8	6
Germaniya	7 945,4	7 957,0	100,1	7
Eron Islom Respublikasi	4 418,7	6 218,3	140,7	8
Ukraina	12 293,4	5 191,6	42,2	9
Kanada	3 232,9	2 315,5	71,6	10
Tayvan	44,5	2 285,8	51,3 b.	11
Yaponiya	15 171,0	1 946,3	12,8	12
Estoniya	2 552,7	1 941,2	76,0	13
Fransiya	2 046,6	1 736,7	84,9	14
AQSH	69 398,3	1 618,9	2,3	15
Litva	43 135,4	1 518,4	3,5	16
Finlyandiya	931,6	1 455,3	156,2	17
Sloveniya	5,9	1 429,1	242,5 b.	18
Avstriya	240,1	1 352,3	5,6 b.	19
Qirg'iz Respublikasi	355,0	1 192,4	3,4 b.	20

2022- yil yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha **55** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2022- yil yanvar-iyun)

Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollarari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	281 979,5	72,9
Navoiy sh.	109 428,6	46,5
Zarafshon sh.	3 979,8	64,9
G'ozg'on sh.	382,9	89,0
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	136 451,9	116,8
Konimex	34,9	3,5
Qiziltepa	12 596,3	2,8 b.
Navbahor	4 424,6	110,5
Nurota	1 830,6	45,0
Tomdi	218,5	7,5
Uchquduq	10 750,9	4,9 b.
Xatirchi	1 487,1	32,5
Bo'linmaydigan hajm	393,4	-



Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani **48,4** % ulush bilan **136 451,9** ming AQSH dollarini, eng quyisi ulushni esa Konimex tumani **0,01** % ulush bilan **34,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, % da)


XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,3	3,3	3,1
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,6	0,6	2,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	0,1	0,1	3,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	13,0	9,1	20,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,9	14,2	23,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	61,0	59,1	40,1
Turli xil tayyor buyumlar	6,4	8,6	5,5
Xizmatlar	3,7	5,0	2,6

2022- yil yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlarda 2021- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **9,1** % dan **20,0** % gacha, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarida importining ulushi **14,2** % dan **23,0** % gacha, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallarda esa **0,1** % dan **3,3** % gacha o'sdi.

2022- yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **7,2** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **2,6** % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **37,2** % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**63,2** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**0,2** %) va boshqa xizmatlar (**36,6** %) dan iborat bo'ldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

Tashqi iqtisodiy faoliyat va

savdo statistikasi bo'limi

Tel.: (99879) 223-50-43